

to‘siqning biri mustamlaka istibodi bo‘lsa, ikkinchisi dinniy jaholat va mutaassiblik edi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, aytish joizki, 10-yillardan boshlab Turkistonda milliy dramaturgiya-teatr vujudga keldi va ma’lum ma’noda o‘zbek milliy dramasi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari bunda belgilovchi ro‘l o‘ynadi. Shunday qilib, ko‘hna Turkistonda yangicha teatr san’ati maydonga keldi, dramaturgiya shakllandi. Teatr, dramaturgiya jadidchilik harakatining va jadid adabiyotining bag‘oyat muhim jabhalaridan bo‘lgani uchun harakatning ma’rifiy, ijtimoiy hamda siyosiy maslamlari tomon yo‘naltirildi, shu bilan mutanosib rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. 1999. №1.214-B
2. Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma’rifat, Fidoyilik. Toshkent “Ma’naviyat” 2002. B.56
- 3.Behbudi M.Bayoni haqiqat // Ulug‘ Turkiston.-1917.-12 iyun.
4. Samarqand teatri // Oyina. – 1913.№10. – 234 -bet.
5. Solihov M.B.. O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar. – Toshkent. 1935yil. – B.74.
6. “Ulug‘ Turkiston”, 1917, 8 dekabr.

JADIDCHILIK VA UNING SHAKLLANISHIDA MATBAANING O‘RNI BO‘YICHA YANGI YONDASHUVLAR

Ikromov Ismoiljon Ibrohimjon o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

Аннотация

В статье рассматривается джадидизм как интеллектуально-культурное реформаторское движение, подчеркивается роль печатной культуры в

трансформации образования, производства знаний, идентичности и публичного дискурса мусульман в Российской империи.

Ключевые слова: джадидизм, печатная культура, мусульманская реформа, модернизация образования, Российская империя, публичная сфера.

Annotation

The article examines Jadidism as an intellectual and cultural reform movement, emphasizing print culture's role in reshaping education, knowledge production, identity, and public discourse among Muslims under Russian rule.

Keywords: jadidism, print culture, Muslim reform, education modernization, Russian Empire, public sphere.

Kirish. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi musulmonlari orasida yuzaga kelgan bo‘lib, asosini ta’limdagi yangilanish g‘oyalari tashkil etgan keng qamrovli madaniy va intellektual islohot harakatidir. Atama jihatidan u qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoilbek G‘aspirali tomonidan ishlab chiqilgan va fonetik savod o‘rgatishga asoslangan “usul-i jadid” (yangi usul) tizimiga borib taqaladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu harakat faqat ta’lim doirasidan chiqib, jamiyatni jaholatdan xalos etish, islomni zamonaviy dunyo ehtiyojlari asosida qayta talqin qilish hamda “*taraqqiy*” va “*madaniyat*” tushunchalari atrofida ijtimoiy yangilanishni amalga oshirishga qaratilgan kengroq mafkuraviy yo‘nalishga aylangan. Jadidlar jamiyatdagi ortda qolishning asosiy sababi sifatida jaholatni ko‘rsatib, undan chiqish yo‘lini an’anaviy tuzilmalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy fanlarni o‘zlashtirishda ko‘rganlar.

So‘nggi yillardagi zamonaviy akademik muhokamalarda jadidchilikka oid tadqiqotlar ayniqsa “*jadid-markazli*” (*jadidocentric*) tarix yozuviga nisbatan bildirilayotgan tanqidlar bilan ajralib turadi [8. 37–38-b.]. Masalan, Devin Deviz kabi tadqiqotchilar jadidchilikdan oldingi davrni faqat “*qoloq va turg‘un*” deb talqin qiluvchi an’anaviy qarashlar mintaqaning boy intellektual merosini va ulamolar muhitining murakkabligini soddalashtirib yuborishini ta’kidlaydilar [8. 39, 45, 67-b.]. Ta’kidlanishicha, yangi yondashuvlar jadidlarni faqat “*modernistlar*” sifatida

emas, balki ularning metodologik jihatdan salafiylik yoki fundamentalizmga yaqin tomonlarini (matnlarga bevosita murojaat qilish, o‘rta asr tafsirlarini rad etish) ham ochib berishga intiladi [8. 58–60, 74–76-b.]. Shu bilan birga, “*qadimchilar*” deb ataluvchi an‘anaviy kuchlarning ham matbaadan foydalanishi va jamoat maydonida faol ishtirok etishi o‘rganilib, “*taraqqiyparvar – reaksiya*” kabi keskin qarama-qarshiliklar qayta ko‘rib chiqilmoqda [12. 151–152-b.; 9. 14–16-b.].

Jadidchilikning shakllanishi va tarqalishida matbaaning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan [15. 299-b.]. Adib Xolidning fikr bildirishicha, matbaa texnologiyasi bilimni ishlab chiqarish va uzatish shaklini tubdan o‘zgartirib, uni ulamolar qo‘lidagi qo‘lyozma madaniyati doirasidan chiqarib, keng jamoatchilikka yoyilishiga va muqaddaslik maqomidan xoli bo‘lishiga xizmat qilgan [15. 301–302, 371-b.]. Shu o‘rinda Ismoilbek G‘aspiralining 1883-yilda nashr etila boshlagan “*Tarjimon*” gazetasi nafaqat axborot manbai, balki turli hududlardagi musulmonlarni umumiy intellektual til asosida birlashtirgan jamoat maydonini shakllantirgan. Matbaa tufayli gazeta felyetonlari, teatr asarlari va hajviy jurnallar kabi yangi janrlar paydo bo‘lib, bu hol ulamolarning bilim ustidan monopoliyasini zaiflashtirgan hamda har bir savodli shaxsning diniy va ijtimoiy masalalarda fikr bildirishiga imkon yaratgan yangi madaniy muhitni yuzaga keltirgan [17. 1056–1057-b.].

Matbaaning kirib kelishi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiya imperiyasidagi musulmonlar orasida arab yozuvidagi matbaaning paydo bo‘lishi XVIII asr boshlariga borib taqaladi. Dastlabki arab harfli matbaa 1723-yilda Astraxanda tashkil etilgan. Keyingi davrda Sankt-Peterburg, Moskva, Qozon va Kavkaz kabi markazlarda yangi matbaalar ochilgan [1. 279-b.]. Ayniqsa, Qozon shahri 1799-yilda podsho Pavel I farmoni bilan tashkil etilgan ilk musulmon matbaasi tufayli imperiyadagi diniy va adabiy nashrlar markaziga aylangan [1. 279-b.; 20. 54–55-b.]. 1801–1810-yillar oralig‘ida faqat Qozondagi ikki matbaada 43 nomdagi darslik va diniy asarlar chop etilgan [1. 279-b.]. Bu davrning muhim namunalaridan biri

sifatida 1801-yilda nashr etilgan “Haftiyak” (Qur‘onning yettidan bir qismi) hamda tatar tilidagi alifbo kitobi va boshqa misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Turkiston hududida matbaachilikning amalda yo‘lga qo‘yilishi esa 1860-yillardagi Rossiya istilosidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Bungacha hududda hukmron bo‘lgan qo‘lyozma madaniyati matbaa kirib kelishi bilan tub o‘zgarishga yuz tutgan [14. 158-b.; 1. 22-b.]. Toshkentdagi ilk matbaa 1868-yilda rus harbiy qarorgohida tashkil etilgan bo‘lib, 1870-yilda arab yozuvi shriftlari joriy etilgach, mintaqaning birinchi rasmiy gazetasi – “Turkiston viloyatining gazetasi” nashr etila boshlagan. Hududda tijoriy va keng ko‘lamli kitob bosish ishlari esa 1883-yilda litografiya (toshbosma) usulining kirib kelishi bilan jadallashgan [14. 189-b.]. Toshkentda tijoriy maqsadda toshbosma usulida chop etilgan ilk asar – 1883-yilda nashr etilgan So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” kitobidir [1. 281-b.]. Boshqa xonliklarda ham shunga o‘xshash jarayonlar kuzatilgan: Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1874-yilda saroyida toshbosma matbaa tashkil etgan bo‘lsa, Buxoroda esa dastlabki matbaa tashabbuslari XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan [1. 284–285-b.].

Rossiya musulmonlari orasida ilk davriy nashrlar jadidchilik g‘oyalarining yoyilishida muhim o‘rin tutgan. Jumladan, 1879–1884-yillarda Tiflisda nashr etilgan “Ziyoyi Qofqosiya” Rossiyadagi dastlabki turkiy gazetalar sirasiga kiradi [1. 285-b.]. 1883 yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qrimda asos solingan “Tarjimon” gazetasi esa inqilobgacha Rossiya musulmonlarining eng nufuzli va ta’sirchan xususiy nashri bo‘lib qolgan hamda “tilda, fikrda, ishda birlik” g‘oyasini keng yoygan. Umuman olganda, matbaa texnologiyasining rivojlanishi natijasida bilim ulamolar monopoliyasidan chiqib, keng jamoatchilikka yetib boradigan ommaviy hodisaga aylangan va bu jarayon jadidchilik harakatining shakllanishi uchun mustahkam intellektual zamin yaratgan [14. 158–160-b.].

Matbaaning jadidchi oydinlar faoliyatidagi ahamiyati. Jadidchilik harakatini matbaa texnologiyasiz tasavvur etish qiyin, chunki aynan matbaa bilimni ishlab chiqarish va tarqatish shaklini tubdan o‘zgartirgan asosiy omil bo‘lgan

[5. 275-b.]. Matbaaning kirib kelishi Markaziy Osiyo va Rossiya musulmonlari orasida asrlar davomida hukmron bo‘lib kelgan, bilim ustoz-shogird munosabatlari asosida yuzma-yuz uzatiladigan qo‘lyozma madaniyatidan (scribal culture) bilim ommalashgan yangi davrga o‘tishni anglatadi [5. 275, 1233-b.]. Musulmon ziyolilar uchun matbaa oddiy vosita emas, balki ta’lim, til va milliy ongni shakllantirishda qo‘llaniladigan muhim *“intellektual texnologiya”*ga aylangan [8. 487-b.].

Jadidchilik faoliyati bo‘yicha taniqli tadqiqotchilardan Adib Xolidning urg‘u berishicha, matbaaning eng katta ta’siri ulamolarning bilim ustidan monopoliyasini zaiflashtirishda namoyon bo‘ladi. Endilikda asosiy manbalarga yetib borish uchun yillar davomida madrasa ta’limini olish shart emas edi — savodli har qanday shaxs bosma asarlar orqali diniy va ijtimoiy munozaralarda ishtirok eta olardi. Bu esa bilimning muqaddaslikdan xoli bo‘lishiga (desakralizatsiya) va uni ratsional asosda muhokama qilish imkonini beruvchi yangi *“jamoatchilik maydoni”* (public sphere)ni yuzaga keltirdi [15. 278, 360–363-b.]. Ismoilbek G‘aspiralining 1883-yildan nashr eta boshlagan *“Tarjimon”* gazetasi Qrimdan Turkistongacha bo‘lgan hududda *“tilda, fikrda, ishda birlik”* g‘oyasini yoyib, ana shu yangi jamoatchilik makonining markaziy nashriga aylandi [20. 548-b; 5. 152–153-b.]. Ziyolilar uchun gazeta jamiyatni tarbiyalovchi *“muallim”*, ijtimoiy muammolarni aniqlovchi *“tabib”* hamda siyosiy fikr bildirish minbari vazifasini bajargan.

Rossiya ma’muriyati dastlab matbaadan musulmon aholini *“madaniylashtirish”* va o‘z rasmiy bayonotlarini yoyish vositasi sifatida foydalangan bo‘lsa-da, jadid ziyolilarining mustaqil nashriyot faoliyati kuchaygani sari ularga nisbatan shubha bilan qaray boshladi [5. 340, 462-b.]. Tadqiqotchilarga ko‘ra, chor hukumatining siyosati asosan uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lgan.

Ulardan eng ma’lumi - panislomizm va panturkizm qo‘rquvi. Rus amaldorlari va konservativ matbuot *“Tarjimon”* va unga o‘xshash nashrlarni Rossiyadagi *“panislomizmning eng xavfli markazlari”* sifatida baholaganlar [20. 565-b.; 1. 38-b.]. Musulmon ziyolilarining umumiy adabiy turkiy til yaratishga qaratilgan harakatlari imperiya yaxlitligiga tahdid sifatida talqin etilgan. Bu esa

musulmonlarning yagona kuchga aylanishidan xavotirlangan Ilminskiy kabi mafkurachilar uchun jiddiy tashvish manbai bo‘lgan.

Senzura va ma‘muriy to‘siqlar ham ma‘muriyatning bu boradagi siyosatining bir bo‘g‘ini edi. Hukumat musulmonlarning gazeta nashr etish yoki kitob do‘koni ochish haqidagi murojaatlarini ko‘pincha *“siyosiy jihatdan xavfli”* deb baholab rad etgan. Masalan, 1910-yilda Toshkentda ochilishi rejalashtirilgan *“Umid”* kitob do‘koniga ruxsat berilmagan [5. 337, 342-b.]. Ruxsat berilgan nashrlar esa mahalliy ma‘muriyat tomonidan qat‘iy nazorat ostida ushlab turilgan. Rus tilini bilmaydigan senzura xodimlari ehtiyot chorasi sifatida eng kichik shubhada ham gazetalarini yopib qo‘yganlar. 1905-yil inqilobi davridagi qisqa erkinlik davrida Turkistonda paydo bo‘lgan ko‘plab mustaqil gazetalar (*“Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”*) *“hukumatga qarshi”* deb topilib, tez orada yopib tashlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mutaxassis amaldorlar orqali nazorati doimiy davom etganligini ham takidlashimiz o‘rinlidir. Turkistondagi muhim rus vakillaridan biri bo‘lgan Nikolay Ostroumov nafaqat rasmiy *“Turkiston viloyatining gazetasi”* muharriri, balki mahalliy nashrlar ustidan nazorat qiluvchi senzura vakili sifatida ham faoliyat yuritgan [5. 144–145, 314-b.]. U jadidlarning faoliyatini diqqat bilan kuzatib, bu nashrlar mahalliy aholining rus ta‘siridan chiqib, tatar yoki usmonli ta‘siriga tushishiga sabab bo‘layotganini qayd etgan va ularni *“yaqinlashib kelayotgan xavf”* sifatida baholagan [20. 554, 632-b.].

Jadid matbaa va nashriyotchiligidan mazmuni va maqsadlari. Jadid matbuotchiligi faoliyati ta‘limdan adabiyotga, siyosatdan ijtimoiy hayotgacha musulmon jamiyatining barcha qatlamlarini isloh qilishni ko‘zlagan boy mazmunga ega bo‘lgan. Bu nashrlarning asosini *“usuli jadid”* maktablari uchun yaratilgan zamonaviy darsliklar va alifbolar tashkil etadi [14. 227-b.]. An‘anaviy maktablarda qo‘llanilgan hijjalab o‘qitish usuli o‘rniga fonetik usulni (usuli savtiya) joriy etgan bu kitoblar o‘quvchilarga faqat diniy matnlarni yodlatishni emas, balki tezkor savod chiqarishni maqsad qilgan [18. 297-b.; 14. 260-b.]. Said Rasul Xo‘janing *«Ustodi avval»* hamda Munavvar qori Abdurashidxonovning *«Adibi avval»* va *«Adibi*

soniy» asarlari ushbu yo‘nalishning eng keng tarqalgan namunalaridan hisoblanadi [2. 193, 264-b.]. Matbaaning imkoniyatlari natijasida yuzaga kelgan yana bir muhim yo‘nalish davriy nashrlar (gazeta va jurnallar) bo‘ldi. Ismoilbek Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali hamda “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” kabi nashrlar jamiyatdagi muammolarni ochib beruvchi va ularni “davolovchi” o‘ziga xos “tabib” vazifasini bajargan [14. 244-b.; 2. 310-b.]. Bundan tashqari, an‘anaviy qo‘lyozma madaniyatida uchramaydigan teatr asarlari (masalan, Behbudiyning «Padarkush» pyesasi), romanlar (Hamzaning «Yangi saodat» asari) hamda badiiy-sayohat janridagi asarlar (Fitratning «Hind sayyohi») jamiyatni tarbiyalashda yangi “ibrat vositalari” sifatida maydonga chiqqan [18. 298–299-b.; 14. 256-b.].

Jadidchilik faoliyati va ularning nashrlari asosida oydinlar uchun matbaa aniq strategik maqsadlar asosida qo‘llanilgan deyishimiz mumkin. Xususan:

- *Asosiy maqsad jamiyatni jaholat uyqusidan uyg‘otish hamda musulmon yoshlarini zamonaviy fanlar — matematika, geografiya, tarix va tabiiy fanlar bilan qurollantirishdan iborat edi;*

- *Jadidlar G‘arbning texnik ustunligini ta‘minlagan taraqqiy va madaniyat tushunchalarini umuminsoniy qadriyat sifatida qabul qilib, matbaa orqali ularni keng ommaga yoyishga intilganlar;*

- *Matbaa bilimni faqat ulamolar qo‘lida bo‘lgan yopiq tizimdan chiqarib, ommalashuviga xizmat qilgan. Shu jarayonda islom dini “o‘qitiladigan fan” sifatida qayta talqin qilinib, diniy bilimlar ona tilida yozilgan darsliklar orqali mantiqiy asosda tushuntirila boshlandi;*

- *Jadid nashrlari mahalliy yoki urug‘-qabilaviy kimliklardan yuqori turuvchi “musulmon” va “turk” birlik g‘oyalarini ilgari surib, umumiy milliy ongni shakllantirishga xizmat qilgan;*

- *Ortiqcha dabdaba va zararli urf-odatlarini tanqid qilish, ayollar ta‘limini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatni ratsional hayot tarziga yo‘naltirish jadid matbuotchiligining muhim vazifalaridan biri bo‘lgan.*

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik matbaa texnologiyasidan oddiy vosita sifatida emas, balki musulmon jamiyatining tafakkurini o‘zgartiruvchi *“intellektual texnologiya”* sifatida foydalangan va shu orqali bilimning ulamolar monopoliyasidan chiqib, ommalashuviga erishgan [14. 117, 271-b.]. Qo‘lyozma madaniyatidan bosma madaniyatga o‘tish bilimning muqaddaslikdan xoli bo‘lishiga (desakralizatsiya) hamda islomni zamonaviy dunyo ehtiyojlari asosida qayta talqin qilishga zamin yaratgan tub tarkibiy o‘zgarish bo‘lgan [16. 360, 683-b.]. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar jadidchilikni an’anaviy *“zulmatdan yorug‘likka o‘tish”* talqinidan tashqariga olib chiqib, uning salafiylik yoki fundamentalizm bilan metodologik o‘xshash jihatlariga (matnga bevosita murojaat, taqlid tanqidi) hamda jadidchilikdan oldingi davrning aslida yuqori intellektual faollikka ega bo‘lganiga e’tibor qaratmoqda [8. 37–40, 74–76-b.]. Bu nuqtayi nazar jadidlarni faqat G‘arbga intilgan modernistlar emas, balki matbaa orqali ulamolarning epistemologik ustunligini zaiflashtirgan va bilimning *“obyektlashuvi”* jarayonini boshqargan yangi ijtimoiy qatlam sifatida talqin qiladi [9. 22-b.; 14. 272-b.].

Rossiya imperiyasining panislomizm qo‘rquvi asosida olib borgan senzura va bosim siyosatiga qaramay, jadid matbuoti Qrimdan Turkistongacha bo‘lgan keng hududda umumiy adabiy til va *“millat”* tushunchasini shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan [23. 158-b.]. Ismoilbek Gaspirali asos solgan bu harakat matbaa orqali yaratilgan jamoatchilik maydoni yordamida mustamlaka sharoitida yashayotgan musulmonlarning zamonaviy dunyoda o‘zligini saqlab qolish va namoyon etish kurashining asosiy tayanchiga aylangan. Xulosa qilib aytganda, matbaa jadidchilik uchun shunchaki nashr vositasi emas, balki ijtimoiy tartib va hokimiyatni qayta shakllantiruvchi muhim texnologik markaz vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdirashidov, Z. (2008). Ismoil Gaspirinskiy va Turkistonda jadidchilik. Toshkent: Akademnashr.
2. Abdirashidov, Z. (2011). Ismail Gasprinski and early 20th century Turkestan. Toshkent: Akademnashr.

3. Abdirashidov, Z. (2019). Ismoil Gaspirinskiy va Turkistonning yangi tarix masalasi. *Uzbekistan Language and Culture*, 1, 47–67.
4. Abdirashidov, Z. (2020). XX. asrning turkiy dunyoning ikki buyuk intellektuali Ismoil Gaspirinskiy va Mahmudho‘ja Behbudiy. *Aydin Türklük Bilgisi Dergisi*, 6(11), 89-119.
5. Abdirashidov, Z. (2023). *Abdurra'uf Fitrat in Istanbul: Quest for Freedom*. Berlin; Boston: De Gruyter.
6. Abdirashidov, Z., & Egamqulova, N. (2019). Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. Toshkent: Muharrir nashriyoti.
7. Alimova, D. A. (2022). *Jadidchilik fenomeni*. Toshkent: Akademnashr.
8. DeWeese, D. (2016). It was a dark and stagnant night ('til the Jadids brought the light): Clichés, biases, and false dichotomies in the intellectual history of Central Asia. *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, 59(1-2), 37-92.
9. Eden, J., Sartori, P., & DeWeese, D. (2016). Moving beyond modernism: Rethinking cultural change in Muslim Eurasia (19th-20th centuries). *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, 59(1-2), 1-36.
10. Gasprinskiy, I. (2006). Hayot va mamot masalasi (tanlangan asarlar) (B. Qosimov & Z. Abdirashidov, tarjimon va tuzuvchilar). Toshkent: Ma'naviyat.
11. Halimova, S. A. (2021). Ubaydulla Asadullaxo‘jayev va “Sadoi Turkiston”. Toshkent: Universitet.
12. Kanlıdere, A. (2004). Sovyet ve Türk tarih yazıcılığında Rusya Müslümanlarının düşünce tarihi. *Türkiye Araştırmaları Literatür Dergisi*, 2(1), 149-181.
13. Kemper, M. (2024). From regional Islamic reform to global anti-colonialism? Jamaladdin al-Afghani and Russia’s Muslims. *Journal of Central Asian History*, 3, 296–326.
14. Khalid, A. (1998). *The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia*. Berkeley: University of California Press.

15. Khalid, A. (2009). Culture and power in colonial Turkestan. *Cahiers d’Asie centrale*, 17–18, 403–436.
16. Khalid, A. (2010). *Islom posle kommunizma: Religiya i politika v Tsentral’noy Azii* (perevod A. B. Bogdanova). Moskva: Novoe literaturnoe obozrenie.
17. Khalid, A. (2015). *Making Uzbekistan: Nation, empire, and revolution in the early USSR*. Ithaca: Cornell University Press.
18. Khalid, A. (2021). *Central Asia: A new history from the imperial conquests to the present*. Princeton: Princeton University Press.
29. Komatsu, H. (1993). 20. yüzyıl başlarında Orta Asya’da Türkçülük ve devrim hareketleri. Ankara: Turhan Kitabevi.
20. Ross, D. (2020). *Tatar empire: Kazan Muslims and the making of imperial Russia*. Bloomington: Indiana University Press.
21. Sartori, P. (2022/2023). Why Soviet Islam matters. *Geistes-, sozial- und kulturwissenschaftlicher Anzeiger*, 157–158, 5–24.
22. Sartori, P. (2024). *A Soviet Sultanate: Islam in Socialist Uzbekistan (1943–1991)*. Vienna: Austrian Academy of Sciences.
23. Tuna, M. Ö. (2004). Gaspralı İlminskiy’e karşı: Rusya İmparatorluğu’nun Müslümanları için iki kimlik projesi. İsmail Bey Gaspralı için (pp. 141–171). Ankara.

Muallif haqida ma’lumot

o‘zbekcha:

Ikromov Ismoiljon Ibrohimjon o‘g‘li, Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi, +998905266691;

на русском языке:

Икромов Исмоилжон Иброхимжон угли, преподаватель кафедры истории Андижанского государственного педагогического института, +998905266691;

in english:

Ikromov Ismoiljon Ibrohimjon ugli, teacher of the Department of History of Andijan State Pedagogical Institute, +998905266691.